

ELEKTRON KUTUBXONANING SHAKLLANISHI VA TUZILISHI

Usmanova Dildora Abdurashidovna

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligining A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tasarrufidagi Toshkent viloyati "TURON" axborot-kutubxona markazi Olmaliq shahar axborot-kutubxona markazi abonementlar va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish xizmati bo'limi, xizmat rahbari Tel.: +99893 108-33-73, e-mail: usmonovadildora19@gmail.com

Annotatsiya: Jahonda kutubxonalar ma'naviyatli insonlarni tarbiyalashda asosiy muassasa bo'lib, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ongining rivojlanishi uchun juda ko'p vazifalarni bajarmoqda. Kutubxonalar bugunga qadar o'tmish, hozir va kelajak o'rtasidagi ko'prik vazifasini o'tamoqda. Maqolada elektron kutubxonalarining vujudga kelish tarixidan so'z boradi.

Kalit so'zlar: Elektron kutubxona, kitobxonlik, resurs, internet.

KIRISH

So'ngi yillarda O'zbekistonda yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, kitob mutolaasiga bo'lgan uyg'otishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi tomonidan ilgari surilayotgan beshta muhim tashabbusning biri - yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqishni oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan. Mazkur masalalarni amalga oshirish uchun kutubxonalar tarixini o'rganish, bu bo'yicha ilmiy hulosalar, takliflar ishlab chiqish o'ta dolzarb va zaruratga aylanmoqda. Boisi, "O'zbekistonda amalga oshirilayotgan e'tiborga molik ishlar, xususan ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini izchil rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida ilm va ijod ahlini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kitobxonlik madaniyatini oshirish kabi vazifalar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan"[1, B. 340.].

ASOSIY QISM

Xalqaro miqyosda elektron kutubxona tizimi tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Dunyoda "Google" tomonidan yaratilgan "The Google Books" eng yirik elektron kutubxona sanaladi. Bir milliard o'ttiz milliondan ortiq kitob raqamlashtirilgan bo'lib, ular 480 tilga tarjima qilingan. Bu raqamlar dunyo bo'yicha yozilgan kitoblarning 20 foizi raqamlashtirilganidan va ularning barchasi elektron kutubxonaga joylashtirilganidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda ham elektron kutubxona ishi va elektron kitobaylanish tizimiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Milliy kutubxonaning 2022 yil I yarim yillik hisobotiga ko'ra umumiy fondi jami 7652438 ta bo'lib, shundan bosma nashrlar 6900365 tani, elektron resurlar soni esa 752073 tani tashkil etayotganligi ma'lum bo'lmoqda[2, B.24].

O'zbekistondagi eng yirik O'zbekiston Milliy kutubxonasi tashkil qilinganiga 150 yildan oshdi. Kutubxona 1870 yil 21 mayda tashkil qilingan. Ko'p yillar davomida O'rta Osiyo tarixi bo'yicha qo'lyozmalar, kitoblar va davriy matbuot nashrlari kabi manbalarni saqlab kelmoqda[3, B. 4-7.].

Kutubxona tarixidagi unutilmas vokealardan biri 2002 yil 20 fevralda ro'y berdi, ya'ni shu kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzurida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasini tashkil etish tug'risidagi Farmon va 2002 yil 12 aprelda "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasini tashkil etish to'g'risida"gi karar kabul kilingan. Bunga muvofiq kutubxona milliy va xorijiy adabiyotlarning asosiy davlat xazinasi, kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik, kitobshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot. metodik ishlarni olib boruvchi va muvofiqlashtiruvchi ilmiy markaz etib belgilangan. Shu qarorda respublikada chiqayotgan xamma bosma nashrlar, audio va multivideo materiallar ikki nusxada bepul kutubxonaga berilishi ko'zda tutilganligi fondlarining muntazam ravishda to'ldirilishiga xizmat kilgan. Endilikda nafakat bosma nashrlardan, balki elektron resurslardan foydalanish xam yo'lga kuyilgan[4, B. 320-323.].

Mamlakatimizda elektron kutubxonalarning joriy qilinishi, axborot-kutubxona ishiga raqamli texnologiyalarning integratsiyalashuvijarayoni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 26 avgustdagi PQ-952-sonli "Koreya Respublikasi hukumatining grant mablag'larini jalb etgan holda ilmiy-texnika adabiyotlari elektron kutubxonasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qaroriga muvofiq amalga oshirilgan. Mazkur qarorga asosan Koreya Respublikasi Hukumati tomonidan 2008-2009 yillar mobaynida ilmiy-texnika adabiyotlari elektron kutubxonasini tashkil etish uchun O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga jami 2 mln. AQSh dollari miqdorida grant mablag'lari ajratilgan.

Grant mablag'lari doirasida olib kelinadigan uskunalar va materiallar, shuningdek ko'rsatiladigan texnik yordamida O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligining Toshkent shahar "Bilim" axborot-kutubxona markazi tashkil etilgan. Markaz tomonidan kutubxonaning imkoniyatlari kengayirilib borilgan. Xususan, kitobxonlarga taqdim etish qiyin bo'lgan yoki cheklangan axborot- kutubxona resurslaridan foydalanishni ko'lamini kengaytirilib, katta hajmli axborot bilan ishlashda foydalanuvchilarga shart-sharoitlar yaratilgan, xizmat ko'rsatishning sifati va tezkorligi oshirilgan. Foydalanuvchilarga elektron kutubxonaning axborot-kutubxona resurslarini taqdim etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari xizmatlari ro'yxati kengaytirilgan va kutubxona texnologiyalari modernizatsiya qilingan. Elektron kutubxonaning axborot-kutubxona resurslarini jahon axborot makoniga integratsiyalashuvi tezlashtirilgan, elektron axborot-kutubxona resurslarini uzoq muddat beshikast saqlashva kelajak avlodlarga yetkazib berish imkoniyati vujudga kelgan.

O'zbekiston Respublikasining 2011 yil 5 iyulda 198-son "Elektron kutubxona to'g'risidagi namunaviy nizomni hamda axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlarida va kutubxonalarda to'liq matnli elektron axborot-kutubxona resurslari fondini yaratish reja-jadvalini tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilindi. Unda Axborot- kutubxona va axborot-resurs markazlarida hamda kutubxonalarda to'liq matnli elektron axborot-kutubxona resurslari fondini yaratish, ig'ma elektron katalog respublika markazi, yig'ma elektron katalog sektorlari va axborot-kutubxona resurslarini raqamlash sektorlari (elektron shaklga o'tkazish), axborot-kutubxona muassasalarining to'liq matnli ma'lumotlar bazalarini yig'ma elektron katalogga birlashtirish, yig'ma elektron katalog respublika markazi va axborot-kutubxona markazlari (AKM)ning yig'ma elektron katalog sektorlarini jihozlash uchun kompyuter va tarmoq asbob-uskunalarini sotib olish, yig'ma

elektron katalogni shakllantirish va elektron bibliografik yozuvlarning yagonabazasini yaratish, yig'ma elektron katalog respublika markazi va axborot- kutubxonalar markazining yig'ma elektron katalog sektorlari mutaxassislarini tayyorlash va ularni yig'ma elektron katalogni shakllantirish ishiga o'qitish kabi vazifalar ustuvor qilib belgilandi.

Yuqoridagi vazifalarni samarali tashkil qilish maqsadida, hozirda davlat kutubxonalar, muzeylar, arxiv tashkilotlarida saqlanib kelinayotgan qadimgi qo'lyozmalar, nodir kitoblarning elektron katalogini tuzish shuningdek, O'zbekiston Milliy kutubxonasida mavjud bo'lgan nodir kitoblar fondining elektron katalogi bilan qiyoslab, yo'q kitoblarni aniqlash hamda Milliy yig'ma elektron katalogi asosida mazkur nashrlarning to'liq matnli elektron ma'lumotlar bazasini yaratishishlari olib borilmoqda.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda viloyat va shahar markazlarida kutubxonalar, elektron kutubxonalar, kitob do'konlari hamda yarmarkalarini tashkil etish, zamonaviy "Book cafe"lar, shaxsiy va raqamli (virtual) kutubxonalar tarmog'ini yo'lga qo'yish va oliy ta'lim muassasalarida "Aqlli kutubxonalar" loyihasi ustida ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada kengaytirish, ajdolarimiz tomonidan yaratilgan, ammo yo'qolib borayotgan yoxud chet el kutubxonalarida saqlanayotgan asarlarni qidirib topish, bibliografiyasini tuzish va ular ustida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish hamda mazkur kitoblarni o'rganish natijalarini bosma holda nashretish, elektron va mobil versiyalarini yaratish, oliy ta'lim muassasalarida kutubxonashunoslik sohasida IT-dasturchi yo'nalishida malakali kadrlar tayyorlashga jiddiy e'tib borilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi \am ulug', \ayoti yorug'va kelajagi farovon bo'ladi. - Toshkent, 2019. - B. 340.
2. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining 2022-yil I yarim yillik faoliyati bo'yicha \isoboti. - 24 bet. <https://uznel.natlib.uz>.
3. Umarov A. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi - tarix saxifalari va zamonaviy taraqqiyot // Kutubxonalar.uz. - 2009. - №1. - B. 4-7.
4. Umarov A. Milliy kutubxonalar faoliyati va mutolaa madaniyati // Fan, ta'lim, madaniyat va biznesda Internet va axborot-kutubxonalar resurslari: XIV xalqaro konferensiya Central Asia-2021. - Toshkent, 2021. - B. 320-323.